

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA RAVISH SO'Z TURKUMINI MAKTAB FAOLIYATIDA QO'LLASH

*Andijon davlat pedagogika instituti
Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi
2 -kurs talabasi
Jumanazarova Maftuna*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ravish so'z turkumu tuzilishi, shakli, turlari, ishlatilinishi haqida ma'lumotlar namunalar bilan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ravish so'z turkumi, ona tili, so'z turkumlari, sifat, ravish turlari.

АННОТАЦИЯ

В этой статье на примерах поясняется информация о структуре, форме, видах и использовании фразеологизма.

Ключевые слова: идиоматическая лексика, родной язык, фразеологизмы, качество, идиоматические типы.

ANNOTATION

In this article, information about the structure, form, types, and usage of the phraseology is explained with examples.

Key words: idiomatic vocabulary, native language, idioms, quality, idiomatic types.

KIRISH

Aziz ustozlar, maktab ta'limi sohasidagi islohotlarimizni amalga oshirishda men sizlarni o'zimning eng yaqin yordamchim, deb bilaman. Maktab ta'limini yanada yaxshilash bo'yicha qabul qilayotgan chora-tadbirlarimizning pirovard natijasi avvalo sizlarga, sizlarning fidokorona mehnatingizga bog'liq.

Men sizlarning timsolingizda o'z hayotini dunyodagi eng ulug' va oljanob ishga – yangi avlod tarbiyasiga bag'ishlagan, o'z kasbiga sodiq va fidoyi insonlarni ko'raman. Bugun sizlar ta'lim-tarbiya berayotgan, qalbini, ongini ezgulik bilan to'ldirayotgan millionlab farzandlarimiz ertaga Yangi O'zbekiston bunyodkorlari bo'lib bizning safimizga kiradi. Vatanimiz, xalqimiz sizlarning bunday oljanob xizmatlaringizni hech qachon unutmaydi. O'qituvchilik kasbini e'zozlash, uning mehnatini qadrlash bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'ladi. Yangilangan Konstitutsiyamizda o'qituvchi maqomini mustahkamlab qo'yidik. Kelgusida shu asosda, albatta, ko'p ishlarni amalga oshiramiz, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

MUHOKAMA VA NATIJALAR



Yurtimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan samarali ishlardan yana biri bu ta'lim sohasini huquqiy jihatdan ta'minlash va natijasini ko'rsatib berish o'lar oq bu tizimda 2020-yil 19-mayda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning ahamiyati mamlakatimizning ta'lim sohasidagi istiqbolining yuqori samarasini ko'rsatib berdi. Qonunning asosiy maqsadi yurtimizda zamon talablariga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlash hamda ularni bilim saviyasini jahon tajribasiga tayangan holda yanada yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab berilgani biz yosh avlodga keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Shuningdek ushbu qonunda ta'lim olish turlariga ham to'xtalib o'tildi. Xususan, ta'lim olishning ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi), ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (Sirtqi, kechki, masofaviy), dual ta'lim, oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish, katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish, inklyuziv ta'lim, eksternat tartibdagi ta'lim, mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasidagi kadrlar tayyorlash kabi maqsad va vazifalar belgilab berildi.

Ravish mustaqil so'z turkumi bo'lib, harakat va holatning belgisini, sifat va ravishning belgisini, ba'zan esa predmetning (otning) belgisini ifodalaydi. Masalan: "Qutlug'jon tez orada o'zbekcha biyron-biyron gaplasha boshladi" yoki "Ko'kday bepoyon mening Vatanim". Ravish asosan harakatning belgisini, sifat esa predmetning belgisini ko'rsatadi. Ravish ish-harakatning bajarilish usuli, vaqt, o'rni, miqdori, darajasi, sababi va maqsadini ifodalaydi.

Ravishlarning grammatik xususiyatlari

O'zgarmasligi: Ravish boshqa so'zlar bilan bog'langanida morfologik jihatdan o'zgarmaydi, ya'ni affikslarni qabul qilmaydi. Lekin ba'zi so'zlar kelishik yoki egalik kelishigi shaklida ravish sifatida ishlatilishi mumkin: "kunda", "yiliga", "birdan".

Darajalash xususiyati: Ravishlar belgi ifodalovchi so'zlar bo'lgani uchun, sifatlar kabi darajalanadi. Oddiy daraja: "Usmonjon gunoxkorona jilmaydi". Qiyosiy daraja: "-roq" affaksi bilan hosil qilinadi, masalan, "astaroq". Orttirma daraja: "nihoyatda", "juda" kabi so'zlar bilan ifodalananadi.

Gapda hol vazifikasi: Ravishlar gapda ko'pincha hol vazifasini bajaradi: "Ogahiy yaratgan she'riy misralar..."

Sifat va otga bog'lanish: Ravishlar sifat va otga bog'lanib kelib, belgi ifodalaydi: "Tog'day og'ir bilak berdim..." .

Otlashish: Ravish otlashishi mumkin, ya'ni otga xos affikslarni qabul qilib, ot kabi qo'llanadi: "Ko'pni ko'rgan ko'hna dunyoda..." .

Ot kesim vazifikasi: Ravishlar gapda ot kesim vazifasida ham kelishi mumkin: "Odam har qancha olim bo'lsa ham..." .

So'z yasalishi: Ravish yasovchi affikslar orqali yangi ravishlar yasaladi: "do'stona", "yangicha". Sintaktik usul bilan ham yasaladi: "bir oz", "har gal".

Modal ma'no: Ravishlarda modal ma'no ham bo'lishi mumkin: "ko'proq", "endigina".

Ravishlarning ma'no turlari

- Holat ravishi: Qay tarzda, qay holatda bajarilishini bildiradi: "asta", "tez".
- Payt ravishi: Ish-harakatning vaqtini bildiradi: "hozir", "avval".
- O'rinc ravishi: Harakatning bajarilish joyini bildiradi: "qaerga", "qaerda".
- Miqdor-daraja ravishi: Harakatning miqdori va darajasini bildiradi: "ko'p", "nihoyatda".
- Sabab ravishi: Harakatning sababini bildiradi: "noiloj", "chorasizlikdan".
- Maqsad ravishi: Harakatning maqsadini bildiradi: "ataylab", "jo'rttaga".

Ravishlarning tuzilishiga ko'ra turlari

- ✓ Sodda ravishlar: Bir o'zaktan iborat: "yaqqol", "ko'p".
- ✓ Qo'shma ravishlar: Ikki so'z asosining birikishi orqali yasaladi: "har gal", "tez fursatda".
- ✓ Juft ravishlar: Ikki so'z asosining teng bog'lanishidan hosil bo'ladi: "hali-beri", "erta-kech".
- ✓ Takroriy ravishlar: Bir so'z asosining takrorlanishi bilan yasaladi: "asta-asta", "sal-pal".

Takroriy ravishlar qo'shimcha ma'nolarni ifodalaydi, leksik ma'nosini o'zgartirmay, ortiqqlik, kamlik, noaniqlik va ta'kid kabi ma'nolarni beradi.

XULOSA

Yurtimizdagи bugungi kundagi o'zgarishlar orqali xalqimiz juda ham mamnun bo'lmoqda. Yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar natijasida yurtimizdagи kadrlar hech jahbada jahon mamlakatlari kadrlaridan ortda qolayotganligi yo'q. Bundan ko'rinish turibdiki, yurtimizda ta'lim jarayonlari, ushbu sohadagi sifat yaxshi darajada rivojlanmoqda. Biz yoshlar ham o'z imkoniyatlarimizni ishga solib hech ham bilim olishdan, hunar o'rganishdan shu bilan birgalikda izlanishdan to'xtab qolmasligimiz kerak. Zeroki biz bu buyuk davlatning ertasi, kelajagining bunyodkorlarimiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arabboyeva M Ona tili darslari orqali o'quvchilarning ijtimoiy emotsiyalik – fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish. Замонавий таълим / современное образование, 2022, 12-son.
2. Arabboyeva M. Ona tili darslarini milliy dastur talablari asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida. Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ- NamDU ilmiy axborotnomasi–2023-yil_7-son.
3. Erkaboyeva N. Q. Adabiyot fanidan savol-javoblar to'plami. T. "Navro'z", 2018.
4. "Umumta'lim fanlari metodikasi" jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018
5. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun 6. darslik). T., "Sharq", 2013.
7. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2003.